



# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2023- YIL YANVAR-MART (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 69-211-72-00




[www.namstat.uz](http://www.namstat.uz)

## Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

2023-yil yanvar-mart oylarida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 4 429,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 104,3 % ni tashkil etdi.


yanvar-mart  
mlrd. so'mda




- B** Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** Ishlab chiqarish sanoati
- D** Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 83,2 % ni tashkil etdi.

yanvar-mart  
FHI, % da




yanvar-mart  
ulushi, % da



## 2023- yil yanvar-mart oylarida

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 148,7 % ga o'sishi hisoblanadi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoat

2023- yil yanvar-mart oylarida



2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 685,7 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,2 % ini tashkil etdi.



Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,7 % ni (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 1,5 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 6,9 % (7,5 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 11,4 % (9,9 %) va quyi texnologiyalisi – 80,0 % (81,1 %) ni tashkil etdi.









## 2023- yil yanvar-mart oylarida

Jami sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 37,0 % (2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 25,4 % (2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,4 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 3,0 % (2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 145,5 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,4 % (2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 145,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,8 % (2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,2 %) ni tashkil etdi

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



## 2023- yil yanvar-mart oylarida



2023-yilning yanvar-mart oylari davomida jami sanoatda 18,2 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 40,4 % ga kamaygan), 9,0 ming tonna paxta tolasi (20,4 % kamaygan), 8,3 ming. tonna omuxta yem mahsulotlari (46,1 % ga kamaygan) hamda 16,3 ming tonna paxta chigiti (16,4 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Omuxta yem, ming tonna	15,9	8,3	-7,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	30,5	18,2	-12,3
Paxta tolasi, ming tonna	11,3	9,0	-2,3
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t	5,1	1,7	-3,4


### Metallurgiya sanoati

2022- yilning yanvar-mart oylarida jami sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 102,3 % bo'lgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylari yakunida ham, metallurgiya sanoatining ulushi 0,4 % ga teng bo'lib, fizik hajm indeksi esa, 88,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 18,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-mart oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 169,5 mlrd so'mni yoki jami sanoat hajmining 5,0 % ni tashkil etgan, 2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 205,7 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi.



### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


Jami sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 572,9 mlrd so'mni, joriy 2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 970,9 mlrd so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 30,8 mlrd so'mga ortgan.



## 2022-yil yanvar-mart oylarida

### Ichimliklar ishlab chiqarish


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 106,6 mlrd. soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 156,0 mlrd. soʻmni tashkil etib, 49,4 mlrd. soʻmga koʻpaygan va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 3,5 % ni tashkil etdi.



### Toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish


2022-yilning yanvar-mart oylarida jami sanoat tarkibida toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,1 % ni tashkil etgan boʻlsa, uning fizik hajm indeksi 127,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-mart oylarida toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 102,3 % ga teng boʻlsa, ishlab chiqarish hajmi 1 155,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



### Kiyim ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 11,0 % ni, yaʼni jami 374,1 mlrd soʻmni tashkil etgan, 2023-yilning yanvar-mart oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 9,6 % ni tashkil etib, 426,0 mlrd. soʻmga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish oʻtgan 2022-yilning mos davriga nisbatan 51,9 mlrd. soʻmga oshgan.



### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 75,5 mlrd. so'mni, jami sanoatdagi ulushi 2,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyati bo'yicha 94,7 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 2,1 % ni, tashkil etdi.



### Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 0,4 mlrd. so'mni tashkil etib jami sanoatining 0,04 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-mart oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 0,7 mlrd. so'mga ko'payib, 1,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,4 % ni, yani 47,5 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-mart oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 24,8 mlrd. so'mga ko'paygan va 72,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## 2023- yil yanvar-mart oylarida

### Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2023-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 695,9 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 15,7 % ini) tashkil etadi.

2023-yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 51,5 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	1544,6	1726,3	181,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	24,3	22,7	- 1,6



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,5 mlrd so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 %ini) tashkil etdi.



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta 'minoti bo' yicha xizmatlar - mlrd so 'm	21860,0	22262,2	402,2
Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	5437,1	4861,8	-575,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 402,2 mlrd. so'm yoki 1,8 % ga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'rnalarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 575,3 mlrd. so'mga kamayganligi kuzatildi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 924,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish 117,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 43,4 % ni tashkil etdi.

#### Oziq-ovqat mahsulotlari







#### Nooziq-ovqat mahsulotlar

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 47,6 % ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 8,9 % Kosonsoy tumani 8,3 % ni, Chust tumani 8,0 % ni, Chortoq tumani 5,5 % ni, Namangan tumani 4,8 % ni tashkil etdi.





### Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 915,8 mlrd. so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 47,6 %, To'raqo'rg'on tumanida 172,5 mlrd so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 8,9 %ni , shuningdek Kosonsoy tumanida 160,7 mlrd. so'm bo'lib, 8,3% ni tashkil etdi.





### Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 49,2% shuningdek, Chortoq tumani 11,6 %, Uchqo'rg'on tumani 6,8 % ni tashkil etadi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi




## 2023- yil yanvar-mart holatiga ko'ra


### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 776,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 17,5 % ni tashkil etdi.

#### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.





#### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2023- yil yanvar-mart)





## Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 46,4 % ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 13,4 % ni, Kosonsoy tumani esa 12,3 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi




o'sish sur'ati  
mlrd. so'm




## Namangan viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 37,0 %ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 20,2 % ni, Chust tumani 7,9 %ni, Namangan tumani 6,5 % tashkil etdi.


### Namangan viloyati



### yanvar-mart o'sish sur'ati



### Namangan sh.




mlrd. so'mda

FHI, % da

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (3 728,0 ming so'm), Namangan shahrida (2 406,0 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

### Namangan viloyati



o'rish sur'ati  
ming. so'm

### Namangan viloyati




### yanvar-mart o'sish sur'ati




### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2 041,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 46,1 % ni tashkil etdi.

#### Namangan viloyati



#### yanvar-mart ulushi % da.




Rayon	Ulushi (%)	Hajmi (mlrd. so'm)
Namangan sh.	58,5	956,8
Mingbuloq	35,2	88,1
Kosonsoy	41,9	93,1
Namangan	66,3	191,6
Norin	69,0	27,1
Pop	69,3	77,1
To'raqo'rg'on	11,0	98,6
Uychi	76,9	190,0
Uchqo'rg'on	22,9	44,4
Chortoq	100,0	112,4
Chust	22,7	79,3
Yangiqo'rg'on	100,0	82,9

●●●●●●●● *jamidagi ulushi*     
 ●●●●●●●● *mlrd. so'm*

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Namangan viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 640,4 ming so'm bo'lgani holda, Namangan shahrida – 1 346,4 ming so'mni, Kosonsoy tumanida 719,7 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 718,5 ming so'mni tashkil etdi.



### Namangan viloyati



### yanvar-mart o'sish sur'ati




### Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 5 789 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 137 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 36,9 % i) Namangan shahriga, 437 tasi (7,6 %) Kosonsoy tumaniga, 430 tasi (7,5 %) Chust tumaniga, 418 tasi (7,2 %) Uychi tumaniga, 414 tasi (7,2 %) Namangan tumaniga, 380 tasi (6,6 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.

#### Jami yangi tashkil etilgan



#### Jami faoliyat yuritayotgan



yangi tashkil etilgan      faoliyat yuritayotgan

●●●●●●●●      ●●●●●●●●

## 2023- yil yanvar-mart holatiga ko'ra

### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 107 ta loyiha bo'yicha 313,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 2,7 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2023-yilning yanvar-mart oylarida 364 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 46,3 % ga kamayganligi kuzatildi.